

MASALANI MUHOKAMA QILIB YECHISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI

Shoyeva Yulduz Amin qizi

*Buxoro davlat universitetining Pedagogika
instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi I I kurs magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida masalani muhokama qilib yechishga o'rgatishning usul va vositalari, masala yechish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: masala, masala yechish bosqichlari, masala muhokamasi, masalani illustratsiyalash, masala sharti.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy va mazmun jihatdan qayta qurish, ta'lim fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv dasturlarini o'zgartirib, yangilab borish, o'qitish jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishni talab qilmoqda. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqib, amaliy hayotda qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Buning uchun avvalo, hozirgi zamon maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni mushohada qila oladigan, har bir vaziyat yuzasidan o'z fikrini bildira oladigan tanqidiy, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lishi kerak. Zotan, maktab matematika fanining oldida turgan eng asosiy shartlardan biri-mustaqil fikr yurituvchi, topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondashuvchi shaxsni shakllantirishdan iborat. Mustaqil fikr yurita olish ko'nikmasini shakllantirish va uni o'stirishda "masala" tushunchasi boshlang'ich sinf matematika fanining muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, jamiyat kelajagiga hissa qo'sha oladigan yoshlarning yetishib chiqishi uchun 1-sinfdanoq o'quvchilarni hayotga tayyorlash, matematika darslarida ularni matematik masalalarni yechish ko'nikmalarini mukammal tarkib toptirib bormoq va bunga erishish yo'llari, usul va vositalarini ishlab chiqish lozim.

Dastavval “masala” tushunchasi ustida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ushbu tushunchaga barcha tan olgan yagona ta’rif yo‘q. Masala tushunchasi sermazmun kategoriya hisoblanib, o‘z sohalariga qarab har qaysi olimlar uni turlicha talqin qilishadi. “Masala” bu aniq bir biror ko‘rinuvchi, lekin erishilmagan maqsadga ongli ravishda erishishga qaratilgan mos vositadir.

Darsliklarda berilgan masalalarni muhokama qilib yechishga o‘rgatish va buni ko‘nikmaga aylantirish ishlarini o‘quvchilar masala tushunchasi bilan tanishgan ilk kunidanoq, ya’ni 1-sinfdan boshlab amalga oshirib borish lozim. Buning uchun o‘quvchilarga qulay va ular uchun eng tushunarli yo‘lni tanlay olish kerak.

Bugungi kunda maktablardagi sinov- tajriba ishlari natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matnli masalalarni yechishga, qisqacha shartini to‘g‘ri tuzishga qiynalishadi. Eng ko‘p kuzatiladigan katta kamchiliklardan biri esa masala muhokamasida o‘qituvchi tomonidan masala yechimiga eltuvchi savollarning noto‘g‘ri tanlanishidir. Masala shartining tushunarli bo‘lishini ta’minlaydigan yana bir eng muhim omil ko‘rgazmalilikdir. Maktab matematika darsliklaridagi masalalarni tahlil qilish davomida o‘quvchilarni masalalarni muhokama qilib yechishga o‘rgatishda o‘qituvchi bir qancha bosqichlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq deb isobladik.

1. O‘quvchilarni masalaning mazmuni bilan tanishtirish.
2. Masala matnidan masala yechimini izlash.
3. Masalani yechish.
4. Yechilgan masalani tekshirish.

Har bir bosqichda ishlash rejasini ustida alohida to‘xtalib o‘tsak:

1. Masala mazmuni bilan tanishtirish bu masalani o‘qib, undagi vaziyatni o‘quvchi ko‘z oldiga keltirish demakdir. Masala matnini asosan o‘quvchilar o‘qishadi. Bunda bolalarni masalani to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish juda muhimdir. Masala yechimi uchun zarur bo‘lgan amalni belgilab beruvchi “bore di”, “jo‘nab ketdi”, “baravardan bo‘ldi”, “qoldi”, “keltirildi” kabi so‘zlarga va berilgan sonlarga alohida urg‘u berish, masala savoliga esa alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Masaladagi tushunarsiz so‘zlarning ma’nosi ustida ham alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Joiz bo‘lsa masaladagi narsa yoki holat aks etgan ko‘rgazmali quroldan foydalanish kerak. Chunki bolalar masalada aks ettirilgan hayotiy voqealarni ko‘z o‘ngida tasavvur qila olishi juda muhim.

2. Masala mazmuni tushuntirilgandan so‘ng unga kiritilgan kattaliklar, miqdorlar, berilgan va izlanayotgan sonlarni ajratib ko‘rsatish, ular orasidagi bog‘lanish nimadaliqi tushuntirish lozim. Shu orqali yechim uchun kerakli arifmetik amal tanlab olinadi. Tushunarsiz hollarda esa masala o‘qituvchi tomonidan illustratsiyalanishi lozim. Ya’ni ko‘rgazmalilikdan foydalanish kerak. Yuqorida aytib o‘tganimizdek boshlang‘ich sinflarda natijaviylikka erishish uchun ko‘rgazmali vositalar muhim ahmiyat kasb etadi. Asosan harakat, masofaga oid masalalarni

tushuntirishda harakatli ko'rgazmalardan foydalanish orqali masala ustida tegishli amallar illustratsiya qilinadi. Predmetli illustratsiya bilan bir qatorda 1-sinfdan boshlab seatik illustratsiyadan foydalaniladi. Bu masalani qisqa yozib olishdir.

3. Masalaning yechilishi bu yechish strukturasi tuzishda tanlab olingan kerakli amallarni bajarish ketma –ketligidir. Boshlang'ich sinflarda masalalarning deyarli yarmi og'zaki bajariladi. Bunda o'quvchilarni yechilayotgan masalani amallariga doir qisqa va to'g'ri tushuntirishlariga o'rgatish kerak.

4. Masala yechimini tekshirishda eng yaxshi yo'l masala shartiga teskari masala tuzish orqali yechimlarning munosib keilishini aniqlashdir. Masalaga teskari masala tuzdirish orqali nafaqat yechimni tekshirish, balki o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish, nutqini o'stirish va eng muhimi mantiqiy fikrlashini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, masalada ustida to'g'ri olib boriladigan bu bosqichlar masala muhokamasini tashkil qilishga xizmat qiladi va bu bosqichlarni har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi aniq qoliplar asosida doimiy bajarib borsa, o'quvchilarda masalani to'g'ri va doimiy ravishda muhokama qilib yechish ko'nikmasini shakllatiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gaybullaevna D. N., Jonpulatovna S. M. Innovative approach to education is a factor for developing new knowledge, competence and personal qualities //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – T. 10. – №. 1. – C. 148-153.

2. Dilova N. G., Saidova M. J. Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – T. 2. – №. 12. – C. 190-196.

3. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de.–2017. – 2017.

4. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 8. – C. 174.

5. Saidova M. Educate students by solving textual problems //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.

6. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 8. – C. 173.

7. Saidova M. J. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 5. – C. 103-107.

8. Jonpo'latovna S. M., Komilqizi K. K. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 170-179.

9. Saidova M. J. Teaching future primary school teachers to pass mathematics lessons through innovative technologies //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – T. 5. – C. 254-261.

10. Jonpolatovna S. M., Gulomovna U. S. Effectiveness of the Use of Information Technologies in Fulfilling Creative Tasks in Primary School Mathematics //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 11. – C. 26.

11. Jonpo'latovna S. M., Amonjonovna F. M. First Improving the quality of education through the use of individual assignments in classroom mathematics lessons //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 13-20.

12. Saidova M. J. Directions and Content of Educational Information //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 210-217.

13. Саидова М., Рахмонова А. Boshlang 'ich sinf matematika darslarida mustaqil topshiriqlardan foydalanish usullari va ahamiyati //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 84-90.

14. Saidova M. J. MODERN CONDITIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH DISTANCE LEARNING //Conference Zone. – 2022. – C. 16-21.

15. Saidova M. J. DIRECTIONS AND CONTENT OF THE ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING //Conference Zone. – 2022. – C. 7-15.

16. Jonpo'latovna S. M. et al. 2-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING O 'QUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 63-65.

17. Saidova M. J. MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 43-46.

18. Jonpo'latovna, Saidova Mohinur. "2-SHO 'BA: BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA XORIJ TAJRIBALARINI TATBIQ ETISH-YANGI O 'ZBEKISTON STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH DRAYVERI SIFATIDA MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING METODIK TA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 176-179.

19. Jonpo'latovna S. M., Sharofat U. BOSHLANG'ICH SINFI MATEMATIKA DARSLARIDA ALGEBRAIK MATERIALLARNI O'RGATISHNING MUHIM VAZIFALARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 71-73.

20. Саидова М. Во‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.

21. Саидова М., Файзуллаева С. Boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining matematik savodxonligini o ‘stirishda raqamlarni o ‘rgatishning integratsion va innovatsion yondashuvi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 118-126.

22. Саидова М., Каримова К. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini masala yechishga o‘rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 59-68.

23. Saidova M. Z. BOSHLANGICH SINIF MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.

24. Saidova M. J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.

25. Саидова М. Masofaviy o‘qitishni tashkil etish shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 141-150.

26. Jonpolatovna S. M. et al. Teaching Integration Tasks Based on Information Technology in Primary School Mathematics //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 6. – С. 21-26.

27. Saidova M. J. Teaching future primary school teachers to pass mathematics lessons through innovative technologies //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – Т. 5. – С. 254-261.